Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320437

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

5. Risks and remedies for artificial intelligence in health care (2019). Available at: https://www.brookings.edu/research/risks-and-remedies-for-artificial-intelligence-in-health-care/.
6. Singh, S. (2022) "Impact of Dataset on Acoustic Models for Automatic Speech Recognition," Cornell University. Available at: https://doi.org/10.48550/arxiv.2203.13590.
7. Lysaght, T. et al. (2019) "AI-Assisted Decision-making in Healthcare," Springer Science+Business Media, 11(3),p. 299-314. Available at: https://doi.org/10.1007/s41649-019-00096-0.
8. Draper, M., Calhoun, G L., Ruff, H., Williamson, D T., & Barry, T P. (2003, October 1). Manual Versus Speech Input for Unmanned Aerial Vehicle Control Station Operations. SAGE Publishing, 47(1), 109-113. https://doi.org/10.1177/154193120304700123
9. Islamov, B.A. and Teshayev, R.K. (2023) Paperless Healthcare: As a tool to boost American healthcare and associated challenges, Zenodo. Available at: https://doi.org/10.5281/zenodo.10433186 (Accessed: 20 June 2024).

BANK OMONATLARI ZAMONAVIY SHAROITDA AHOLINING JAMG'ARMA PULLARINI SAQLASHNING ASOSIY VOSITASI SIFATIDA

Davlyatova Gulnora Muhammedjanovna
Farg'ona politexnika instituti, "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti i.f.n.
g.davlyatova@ferpi.uz

Annotatsiya. Hozirgi zamonaviy sharoitlarda bank tizimi har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bank tizimi orqali iqtisodiy subyektlar o'zlarining moliyaviy ehtiyojlarini qondirib, iqtisodiy faoliyatini davom ettiradi. Aholi mablag'larini banklarga jalb qilish orqali moliyaviy resurslar to'planib, ularni iqtisodiy rivojlanishga yo'naltirish mumkin bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda ushbu tadqiqotda aholi jamg'armalar hajmining o'sishiga ta'sir etuvchi omillar ko'rib chiqilgan va aholi jamg'armalarini bank depozitlariga jalb qilishning o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan. Shuningdek muallif tomonidan zamonaviy usullar yordamida aholining omonat mablag'larini jalb qilish banklar uchun yangi imkoniyat ekanligi e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: aholi omonatlari, zamonaviy usullar, raqamli bank xizmatlari, mobil bank ilovalari, onlayn platformalar, moliyaviy texnologiyalar, bank sektori samaradorligi.

Zamonaviy global va raqamli dunyoda banklar kabi moliyaviy tuzilmalarning raqobatdagi muvaffaqiyati ularning qobiliyatlari, imkoniyatlari va o'z-o'zini rivojlantirish darajasi bilan tobora ko'proq belgilanadi. Bugungi kunda bank sohasi kapital bozorlaridagi doimiy o'zgarishlar bilan bir qatorda eng yetakchi va tez o'zgaruvchan tarmoqlardan biri bo'lib, qoida tariqasida, ushbu sohada raqobat ham sezilarli darajada oshib bormoqda. Yangi voqelik va iste'molchilarning talablari moliyaviy tashkilotlarni biznes yuritishning an'anaviy usullaridan voz kechishga majbur qilmoqda. O'zbekiston moliya sektori allaqachon yangi texnologiyalarning rivojlanishi ta'sirida o'zgarib borayotgan global moliyaviy muhitga integratsiyalasha boshladi. Bugungi kunda yangi texnologiyalar banklarning barqarorligi, raqobatbardoshligi va barqaror iqtisodiy o'sishining asosiy omilidir. Shu bilan birga, banklar nafaqat innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishning katalizatoriga aylanadi, balki o'zlari ham yangilanishi kerak.

Published: 23.12.2024
Cite this article: Davlyatova Gulnora Muhammedjanovna (2024). Bank omonatlari zamonaviy sharoitda aholining jamg'arma pullarini saqlashning asosiy vositasi sifatida. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320437
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Tijorat banklari aholining vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larini jamg‘arishga ixtisoslashgan bo‘lib, ularning jamg‘armalarini qadrsizlanishdan himoya qilishga mo‘ljallangan. Ular nafaqat pul mablag‘larini jalb qilish va ularni iqtisodiyotga kiritish uchun boshqa banklarga berish maqsadida jamg‘arma operatsiyalarini amalga oshiradilar, balki mustaqil investitsiya loyihalarini ham amalga oshishga hissa qo‘shadi. Aholining omonat mablag‘larini banklarga jalb qilish orqali moliyaviy resurslar to‘planib, iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash imkoniyati yaratiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar orqali bank xizmatlari yanada qulay va tezkor bo‘lib, bu jarayon aholining banklarga bo‘lgan ishonchini oshiradi. Biroq zamonaviy sharoitlar shuni ko‘rsatmoqdaki banklarda resurs bazasining yetarli hajmi bo‘lmaligi, bank muassasalari yuridik va jismoniy shaxslarning joriy ehtiyojlarini kreditlashni zarur darajada ta’minlay olmaydi, shuningdek, investitsiya loyihalarini amalga oshira olmaydi. Zamonaviy raqobat muhitida moliyaviy tuzilma depozit operatsiyalarini amalga oshirish orqali jalb qilishi kerak bo‘lgan depozit resurslarining ahamiyatlilik koeffitsiyenti ortib bormoqda. Ushbu holatni hisobga olgan holda, ushbu tadqiqot muhim ahamiyatga ega va dolzarb hisoblanadi.

Bank muassasasining tijorat korxonasi turlaridan biri sifatida o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning resurslarining katta qismi o‘z mablag‘lari hisobidan emas, balki jalb qilingan mablag‘lar hisobidan shakllanadi. Banklarning mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlari cheksiz emas va har qanday davlatda Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi. Tijorat banki korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, jamoat va boshqa banklardan depozitlar va tegishli hisobvaraqlar ochish shaklida mablag‘larni jalb qilish imkoniyatiga ega. Banklar tomonidan jalb qilingan mablag‘lar tarkibi jihatidan xilma-xildir. Ularning asosiy turlari-mijozlar bilan ishlash jarayonida banklar tomonidan jalb qilingan mablag‘lar (depozitlar), o‘z qarz majburiyatlarini berish orqali to‘plangan mablag‘lar (depozit va jamg‘arma sertifikatlari).

Butun bank siyosatining eng muhim tarkibiy qismi resurs bazasini shakllantirish siyosati hisoblanadi. Bank tomonidan passiv operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida resurs bazasini shakllantirish tarixan uning faol operatsiyalariga nisbatan asosiy va hal qiluvchi rol o‘ynagan. Ma’lumki, bank resurslarining asosiy qismi bank depozit operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida shakllanadi, ularning samarali va to‘g‘ri tashkil yetilishi pirovardida har qanday kredit tashkiloti faoliyatining barqarorligiga bog‘liq. Shu munosabat bilan javobgarlikni samarali boshqarish orqali resurs salohiyatini oshirish va uning barqarorligini ta’minlash masalalari ayniqsa dolzarb bo‘lib bormoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida omonat mablag‘larini jalb qilishda mobil ilovalar, onlayn platformalar, bonus tizimlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali targ‘ibot kabi raqamli yondashuvlar samarali qo‘llanilmoqda. Dunyo statistikasi shuni ko‘rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda banklarning 60% dan ortig‘i mijozlarni jalb qilish uchun zamonaviy usullarni qo‘llab kelmoqda. O‘zbekistonda esa bu jarayon kech boshlanganiga qaramay, raqamli bank xizmatlari kengayib, so‘nggi yillarda aholining omonat mablag‘larini jalb qilish ko‘rsatkichlari barqaror o‘sishiga erishilmoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning o‘zida aholi omonatlari 12% ga o‘sgan.

John Smith o‘z asarida raqamli texnologiyalar yordamida omonat mablag‘larini jalb qilishda AQSh tajribasi keltirilgan. Bu asarda mobil ilovalar va sun’iy intellekt yordamida mijozlarga qulaylik yaratish muhimligi ta’kidlangan [1].

Sara Thompson, esa o‘z tadqiqotida zamonaviy bank xizmatlari orqali mijozlarning talabini qondirish usullari va ularning iqtisodiy samaradorligi haqida ma’lumotlar keltirilgan [2]. Dilnoza Norboyeva maqolasida O‘zbekistonda bank xizmatlarini raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyihalar va ularning omonat mablag‘larini jalb qilishdagi o‘rni haqida so‘z yuritadi [3].

Ushbu asarlar raqamli texnologiyalarning bank sektorida o‘sishni qo‘llab-quvvatlashdagi o‘rnini va banklar uchun muhim strategiyalarni tahlil qiladi.

So‘nggi yillarda texnologiyalar rivojlanib, moliyaviy xizmatlar raqamlashtirilib borilmoqda. O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan davlatlarda banklar zamonaviy usullarni qo‘llash orqali omonat mablag‘larini jalb qilishda samaradorlikka erishishlari mumkin. Raqamli bank xizmatlarining ko‘payishi, onlayn banklar va mobil ilovalar orqali omonat mablag‘larini jalb qilish aholiga qulaylik yaratadi. Shu sababdan, zamonaviy xizmatlar orqali aholining omonat mablag‘larini jalb qilish zamonaviy bank tizimining asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Banklarda aholi omonat mablag‘larini zamonaviy usullariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mobil bank ilovalari orqali aholi o‘z omonatlarini istalgan vaqtda, istalgan joydan boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lib, bu jarayonni oson va tez amalga oshiradi. Banklar aholining omonat mablag‘larini jalb qilish uchun qulay interfeys, 24/7 xizmat va xavfsizlik kafolati taqdim etishi kerak. O‘zbekiston bank tizimida ham mobil ilovalar orqali omonatlar jalb qilinmoqda;

- raqamli bank xizmatlari asosan onlayn platformalar orqali amalga oshiriladi. Banklar o‘zining rasmiy veb-saytlari va maxsus onlayn platformalar orqali aholini omonatga mablag‘ qo‘yishga rag‘batlantiradi. Onlayn xizmatlar orqali mijozlar tezkor tarzda hisob ochishi, omonat qo‘shishi va boshqa moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishi mumkin.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar aholining moliyaviy xabardorligini oshirishda va ularni omonatlarga jalb qilishda katta ahamiyatga ega. Banklar ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama kampaniyalari o‘tkazadi, aholiga moliyaviy mahsulotlar haqida tushunchalar beradi va yangi omonat dasturlari haqida ma’lumot beradi. Bu usul bank xizmatlarining omma orasida ommalashishiga xizmat qiladi.

Ushbu 1- jadvalda dunyoning turli mamlakatlaridagi yirik banklarning aholi omonat mablag‘larini jalb qilish bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar va raqamli xizmatlardan qanday foydalanayotgani haqida ma’lumotlar berilgan. Bu banklar ilg‘or texnologiyalardan foydalangan holda mijozlar uchun qulay va tezkor omonat hisobvaraqlari yaratib, raqobatbardosh moliyaviy xizmatlar taqdim etmoqda.

1-jadval


Banklarda aholi omonat mablag‘larini zamonaviy usullarda jalb qilish bo‘yicha xorij tajribasi

Bank nomi	Mamlakat	Zamonaviy usullar orqali omonat jalb qilish tajribasi
JPMorgan Chase	AQSh	Mobil ilovalar va onlayn banking orqali omonatlarni boshqarish imkoniyati, raqamli hisob ochish jarayonlari.
Bank of America	AQSh	"Erica" sun’iy intellekt yordamchisi orqali mijozlarga moliyaviy maslahatlar va omonatlarni boshqarish xizmatlari.
Commonwealth Bank	Avstraliya	"CommBank" mobil ilovasi orqali mijozlarga omonatlarni boshqarish, maqsadli jamg‘arma hisobvaraqlari yaratish imkoniyati.
Santander Bank	Ispaniya	"Santander SmartBank" ilovasi orqali yosh mijozlarga mo‘ljallangan raqamli omonat hisobvaraqlari va boshqarish xizmatlari.
Nubank	Braziliya	To‘liq raqamli bank sifatida mobil ilova orqali omonat hisobvaraqlari ochish va boshqarish imkoniyati, minimal komissiya bilan.

Yuqoridagi 1-jadvaldagi banklar mijozlarni jalb qilish va omonat mablag‘larini ko‘paytirishda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanmoqda. Xususan, sun’iy intellekt yordamida maslahat berish, raqamli bank hisoblarini tezkor ochish va mobil ilovalar orqali hisoblarni boshqarish imkoniyati taqdim etiladi. Shu bilan birga, ayrim banklar yoshlar va kichik bizneslarga mo‘ljallangan maxsus mahsulotlar yaratib, an’anaviy bank xizmatlariga innovatsiyalarni qo‘shmoqda.

Xorij banklari raqamli xizmatlarni kengaytirib, omonat mablag‘larini jalb qilishda yangi texnologiyalardan foydalanish orqali katta muvaffaqiyatga erishgan. Ushbu tajriba O‘zbekiston banklari uchun ham raqamli transformatsiya va aholi omonatlarini ko‘paytirish bo‘yicha foydali yo‘nalishlar taklif etishi mumkin.

2021-2023 yillar davomida O‘zbekiston banklari raqamli xizmatlar orqali omonatlarni jalb qilishda barqaror o‘sish sur’atiga erishdi. Bu o‘sish, banklarning zamonaviy xizmatlarni kengaytirishi va mijozlar uchun qulaylik yaratish orqali amalga oshirildi.



1-rasm. 2021-2023 yillar bo‘yicha banklarda aholi omonat mablag‘lari taqqoslanishi.

1-rasmda O‘zbekistonning tijorat banklarida aholi omonat mablag‘lari hajmining 2021-2023 yillarda qanday o‘sib borganini ko‘rsatadi. Ma’lumotlar yillik kesimda banklarning aholiga taqdim etgan raqamli xizmatlar orqali jalb qilgan mablag‘larini aks ettiradi. 1-rasmda har bir bankning 2021, 2022 va 2023 yillar uchun o‘ziga xos omonat mablag‘lari ustunlar bilan taqdim etilgan. Ushbu ustunlar orqali banklarning yillik omonat mablag‘lari miqdorini ko‘rish va o‘zaro taqqoslash mumkin. Misol uchun, 2023 yilda O‘zmilliybankda omonat miqdori 36,627 mlrd. so‘mga yetgan bo‘lsa, Turon bank omonatlari 3,103 mlrd. so‘mni tashkil etgan.

Umuman olganda, mamlakatning butun bank tizimi aholining omonatlarga jamg‘armalarni jalb qilish usullarini yanada rivojlantirish, aholining omonatlarini shakllantirish va investitsiyalarga aylantirishning potensial imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, aholining omonatlarini tejashga bo‘lgan moyilligidan yanada faol foydalanishi kerak. Fikrimizcha hozirgi zamonaviy sharoitlarda ustuvor chora-tadbirlar qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Fuqarolarning bank tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va omonatlar barqarorligini ta’minlash maqsadida aholi jamg‘armalarining to‘liq saqlanishi hamda

qaytarilishini kafolatlovchi qonunchilik bazasini rivojlantirish, takomillashtirish, ishlab chiqish.

2. Aholining turmush darajasini yaxshilash, bu, birinchi navbatda, davlatning samarali iqtisodiy siyosatiga asoslanadi. Bunday siyosat aholining jamg‘armalarini yanada ko‘paytirishga, ularning tarkibini o‘zgartirishga olib keladi va kredit tashkilotlari resurslarini qiymat va muddat bo‘yicha muvozanatlashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi, pirovardida iqtisodiyotni investitsiyalash bo‘yicha ko‘plab vazifalarni hal qiladi va hududlarda banklar tomonidan jalb qilingan pul mablag‘lari o‘sha hududlarning manfaatlari yo‘lida ishlaydigan mexanizmni yaratadi.

3. Bankning samarali depozit siyosatini takomillashtirish, buni yuqori korporativ boshqaruv, bank tomonidan qonunchilik jihatlariga rioya qilish, kasbiy etika tamoyillariga to‘liq rioya qilish orqali amalga oshiriladi.

Ushbu chora-tadbirlar aholining jamg‘armalarini jamg‘armalarga yo‘naltirishga va shunga mos ravishda iqtisodiyotga sarmoya kiritishga yordam beradi va bank xizmatlari bozori jamg‘armalarni investitsiyalarga aylantirish mexanizmi funksiyalarini bajaradi. Omonat mablag‘lari banklar va mijozlar uchun ham foyda keltiradigan muhim moliyaviy instrument bo‘lib qoladi. Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni kengaytirish orqali banklar aholi omonatlarini samarali jalb qilish va iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash imkoniyatini oshirishi mumkin.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, banklarda aholi omonat mablag‘larini zamonaviy usullar orqali jalb qilish mijozlarga qulaylik va tezkor xizmatlarni taklif qilish bilan birga, bank sektorining samaradorligini oshirish imkoniyatini ham taqdim etadi. Mobil ilovalar, onlayn platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali omonatchilarni jalb qilish banklarning mijozlar uchun innovatsion xizmatlar ko‘rsatish borasidagi ustunliklarini oshiradi. O‘zbekiston banklari ushbu tajribalarni o‘z amaliyotlariga joriy etib, aholi omonatlarini ko‘paytirishga erishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Smith, J. (2021). Banking in the Digital Era. New York: Financial Publishing.
2. Thompson, S. (2022). Emerging Trends in Financial Services. London: Global Economics.
3. Norboyeva D. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BANK TIZIMINI ISLOH QILISHNING YO‘LLARI // Экономика и социум. 2023. №11 (114)-1. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyot-sharoitida-bank-tizimini-isloh-qilishning-yo-llari (дата обращения: 11.11.2024).
4. Кудбиев, Н. Т. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ ПРЕДПРИЯТИИ С КОММЕРЧЕСКИМИ БАНКАМИ. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 3(10), 87-93.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). "O‘zbekiston banklaridagi omonat mablag‘lari statistikasi". cbu.uz

IQTISODIY O‘SISH SURATLARINI TA’MINLASHDA TASHQI SAVDONING O‘RNI VA AHAMIYATI

Sharipov Narzullo G‘ulomovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasining katta o‘qituvchisi, E-mail: gavhar9369@gmail.com